

Zamonaviy Markaziy Osiyo Falsafasinini Ikki Dahosi

*Haqqulov Nabijon Qahramonovich*¹

Annotasiya: Sharq va G'arb madaniyatlari o'zaro tutashgan va bir-birini boyitgan, jahon tamaddunining qadimiy beshiklaridan biri - Markaziy Osiyo hisoblanadi. Sharq va G'arb chorrahasida joylashgan bu mintaqa ko'p asrlar davomida madaniyatlar, ilmiy g'oyalar, tillar hamda dinlarning o'zaro muloqoti va ta'siriga turtki beradi.

Maqolada mintaqaning taniqli faylasuf-olimlari - akademik I.M.Mo'minov va akademik A.M. Bahouddinovlarning falsafiy tafakkur merosining zamonaviy sivilizasiya rivojidadagi o'rni va ahamiyatini, mamlakatlarimiz o'rtasida ko'p qirrali hamkorlik va o'zaro do'stona aloqalar tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: Markaziy Osiyo, zamonaviy sivilizasiya, ilm-fan, falsafiy tafakkur tarzi, madaniyat chorrahasi, ijtimoiy-falsafiy hamda ilmiy-tabiiy fikrlari rivoji, ma'naviy meros.

Tarixiy ildizlari ilk o'rta asrlarga borib taqaladigan tarqalgan Samarqand davlat universiteti nafaqat O'zbekistonda balki Markaziy Osiyoda ham eng nufuzli universitetlardan biridir. Samarqanddagi Ulug'bek Oliy madrasasi butun dunyoga mashhur bo'lgan. Bu dargohda boshlangan ilmiy ishlar keyinchalik boshqa mamlakatlarga ham ko'chib o'tgan. Samarqand qadimdan minglab olimu ulamolalar, shoirlar, buyuk mutafakkirlarni tarbiyalab kamolga yetkazgan. Bu zamin sarhadida 80ga yaqin samarqandiy taxallusi ostida dunyo tan olgan mutafakkirlar yetishib chiqqan.

Shu ma'noda, Markaziy Osiyo falsafa ilmi yo'lida ilm-ma'rifat ziyosini ulashgan, yetuk insoniy fazilatlar sohiblari – akademiklar Ibrohim Mo'minovich Mo'minov (1908 -1974) hamda Alouddin Mahmudovich Bahouddinovlar mintaqada ijtimoiy-falsafiy bilimlar taraqqiyotining ijtimoiy-iqtisodiy, g'oyaviy, ma'naviy-axloqiy zaminlari to'g'risidagi ilmiy bilimlar, tarixiy-falsafiy manbalarni o'rganish va tahlil qilish orqali yangi ma'lumotlar, kitoblar, qo'llanmalar yaratish borasida Markaziy Osiyo ilm-fani rivojlanishida yetakchi mutaxassis, faylasuf olimlari ekanligini alohida e'tirof etishimiz zarur.

XX asr Markaziy Osiyo falsafasining buyuk daholari - I.Mo'minov hamda A.Bahouddinovlarni mintaqa xalqlarining ilm-fan va ma'naviyatining avvalgi shon-sharafini qayta tiklash yo'lidagi ishonchli va samarali hamkorligining tub ildizi, hayot chorrahasida uchrastirgan joy - Samarqand davlat universiteti hisoblanadi.

Zamonaviy O'zbekiston falsafa maktabining asoschisi, taniqli jamoat arbobi hamda mashhur olim - Ibrohim Mo'minov 1928 yildan o'sha paytdagi Oliy Pedagogika akademiyasi (hozirgi Samarqand davlat universiteti)ning ijtimoiy-iqtisodiy fakultetini a'lo baholar bilan bitirib, mehnat faoliyatini shu dargohda olib boradi. Pedakademiya O'zbekiston davlat universitetiga aylantirilgach, filologiya, keyinchalik tarix fakulteti dekani, kafedra mudiri (1933—55) sifatida faoliyat olib borgan.

Zamonaviy Tojikiston falsafa maktabining asoschisi, davlat va jamoat arbobi faylasuf olim Alouddin Mahmudovich Bahouddinov 1911 yilda Samarqand shahrida tavallud topgan. 1931- yilda Oliy Pedagogika akademiyasi (hozirgi Samarqand davlat universiteti)ni bitiradi. 1931-1934- yillar davomida mazkur akademiyada aspirantura yo'nalishida tahsil oladi. 1928-1930- yillar davomida akademiyada o'qituvchilik qilish bilan birgalikda o'z ilmiy ishlarini ham olib boradi. 1931-1934- yillar davomida mazkur akademianing psixologiya fakulteti dosenti bo'lib ishlagan. Keyinchalik akademik

¹ Samarqand iqtisodiyot va servis instituti Ijtimoiy fanlar kafedrasida o'qituvchisi



A.M. Bahouddinov tojik ijtimoiy fanlarining zamonaviy rivojlanish tarixida Tojikistonda zamonaviy falsafiy maktabning asoschisi hisoblanadi[1;3].

Shu o'rinda ta'kidlash kerakki, Markaziy Osiyo tarixiy-falsafiy tafakkur rivojini o'rganish, aynan, XX asr Markaziy Osiyo zamonaviy falsafiy tafakkurning shakllanishi tarixini o'rganish ham dolzarb va katta ilmiy va amaliy ahamiyatga ega bo'lib, bu davr mavzusini ilmiy tadqiq qilishda akademiklar Ibrohim Mo'minovich Mo'minov hamda Alouddin Mahmudovich Bahouddinovlarni xizmatlarini alohida qayd qilib o'tish joiz.

Darhaqiqat, har bir tarixiy davrning xalq shijoati, buyuk allomalar, ilmu-fan, ilohiyot, davlat va siyosat arboblari faoliyati bilan bevosita bog'langan tasnifi va o'ziga xosligi bo'ladi. O'z davri shukuhidan kelib chiqqan holda akademik-faylasuflarning ilmiy-ijodiy faoliyatlariga sobiq sho'rolar mustabid tuzumi o'z ta'sirini ko'rsatgan bo'lsada, biroq, ularning tadqiqotlari markazida Sharq, xususan, Markaziy Osiyo xalqlarining ijtimoiy-falsafiy hamda ilmiy-tabiiy fikrlari muammolari turganligi natijasida, falsafaning o'ta siyosiylashuvini, uni hukmron mafkura xizmatiga tamomila bo'ysundirish xurujlarini chetlab o'tish imkoniyatiga ega bo'ldi. Tadqiqotlaridagi umumiylikni ko'rishimiz mumkin. Jumladan, Forobiy va ibn Sino, Jomiy va Navoiydan tortib, Siddiqiy Ajziy hamda Ahmad Donishgacha bo'lgan yirik mutafakkirlar ijodini tahlil qildilar[2].

Xususan, sobiq Ittifoqda Bedilning falsafasi, uning ijtimoiy-falsafiy qarashlari xususida ilk bor akademik I. Mo'minov tomonidan, Mirzo Bedilning bir qator maqola va risolalar yozdi, doktorlik dissertatsiyasi orqali tanishimiz mumkin bo'ladi[3;113]. Olim tomonidan Bedilning ruh, materiya va shakl haqidagi ta'limotini, bilish nazariyasini, shuningdek, ijtimoiy-siyosiy qarashlarini tahlil qiladi. Muallif Bedilning tojik va o'zbek adabiyotiga ta'siri haqida qisqacha to'xtalib, Bedilning Yevropada ilg'or mutafakkirlar darajasiga ko'tarila olganini qayd etadi, tabiatning o'zini o'rganish orqali tabiat hodisalarini tushuntirishga chaqiradi. Bu bilan Mirzo Bedil g'oyalarida dialektik nazariyalarning mavjudligiga ham ishora qiladi.

Bedil asarlarini Tojikistonda falsafiy tadqiq qilish masalasiga kelsak, aytish kerakki, u dastlabki bosqichda Akademik A.M. Bogoutdinov «Tojik falsafasi tarixining ocherklari» asarida Bedilga bir necha sahifa bag'ishlab[4;331], uning falsafasining panteistik mohiyatini ko'rsatib, o'z davri jamiyatining ijtimoiy illatlarini tanqid qilgan.

Ibrohim Mo'minov turli davrlarda Bedil ijodini turlicha talqin qiluvchilar bo'lganini, ularning nomlarini aytadi. Shulardan Ahmad Donish, Bedilni yaxshi tushunib, "Chor unsur" asarining har bir unsurini o'zicha tushuntirada. Tadqiqotchi Temur Mo'minovning keltirishicha, "Ibrohim Mo'minov avval Bedil ijodi bilan Ahmad Donish vositasida tanishgan bo'lsa keyinroq u Sadridin Ayniy, G'afur G'ulom, Shoislom Shomuhamedov yordamida Bedil asarlarining o'zini to'liq o'rgana boshladi. Uning Bedil haqidagi asari hozirgacha O'zbekiston falsafasining yetuk, nodir asarlaridan sanaladi" [5;442].

Misol uchun akademik Ibroxim Mo'minov Ahmad Donishning ijtimoiy-falsafiy qarashlarini o'rganish va tahlil qilish asosida quyidagi xulosaga kelgan: u "o'z vatani va xalqini qoloqlikdan chiqarish yo'lini dastlab quyidagi hayotiy muhim tadbirlarni amalga oshirishda deb bildi: mamlakat mustaqilligini ta'minlaydigan adolatli hokimiyat o'rnatish; irrigasiyani kengaytirish asosida dehqonchilikni rivojlantirish; hunarmandchilik ishlariga har tomonlama yordam berish; fan yutuqlariga erishish uchun harakat qilish; olimlar, vrachlar tayyorlash kerakki, toki aholi ularning xizmatidan bahramand bo'lsin" [6;183-184].

Akademik A.M. Bogoutdinov tojikistonlik ma'rifatparvarlarining falsafiy va ijtimoiy-siyosiy qarashlarini, ma'rifatparvarlar hayoti va faoliyatini tahlil qilar ekan, Ahmad Donish haqida tojik xalqining 19-asr 2-yarmi — 20-asr boshlaridagi eng buyuk mutafakkir va atoqli ma'rifatparvar sifatida yozadi [7;126-132]. A.M. Bogoutdinov yozishicha, agar Ahmad Donishning ma'rifatparvar o'tmishdoshlari faqat maorif zarurligi haqida gapirgan bo'lsa, Ahmad Donish maorif islohotini amalga oshirishning aniq yo'llarini ko'rsatib, aniq bir loyiha bilan Buxoro amiri Muzaffarga taqdim qilaolgan[1;9].



Shuningdek, akademik Alouddin Bahouddinov Abu Ali ibn Sinoning mutafakkir merosidagi murakkab falsafiy atamalarini rus tiliga tarjima qilib, u kelajakdagi tarjimonlari uchun lugʻatni yaratdi, bu oʻz navbatida murakkab falsafiy va ilmiy matnlarni tushunishga yordam berdi [1;19].

Taniqli faylasuf-olim, professor Omonullo Fayzullayev muhim bir tashabbusni ilgari suradi; "Markaziy Osiyoda yashab oʻtgan buyuk allomalarimiz – bir paytlar juda qudratli boʻlgan Buyuk Turon yurtining farzandlaridir. Shunday ekan, ularning tarixini Markaziy Osiyoda yashovchi xalqlar oʻzaro uyushib, birgalikda tadqiq etishimiz, bobokalonlarimiz yaratgan durdona gʻoyalarni butun dunyoga tarqatishimiz, bu gʻoyalarni butun insoniyatning maʼnaviy mulkiga aylantirishimiz lozim, der edi ustoz. Haqiqatdan ham, xalqimiz qalbida, genlarida (irsiyatida) donishmandlik sifati yashab kelmoqda" [8].

Xulosa qilib aytganda, XX asr Markaziy Osiyo falsafasining buyuk daholari – akademiklar I.Moʻminov hamda A.Bahouddinovlarni ijtimoiy-falsafiy tafakkur merosini zamonaviy sivilizatsiya rivojidadagi oʻrni va ahamiyatini - mustaqillik tafakkurini shakllantirish, dunyoga yangicha yondoshuv, teran aql va tafakkur kuchi bilan voqeya va hodisalarni baholay oladigan, masʼuliyat hissini chuqur anglab, loqaydlik va befarqlikka qarshi tura oladigan yoshlar tarbiyasida muhim omillaridan biri ekanligi bilan izohlashimiz mumkin boʻladi.

Foydalanilgan adabiyotlar roʻyxati:

1. Муллобоева Д.А. Академик А.М. Богоутдинов и развитие историко-философской науки в Таджикистане. Автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата философских наук. – Душанбе, 2016. - С.3.
2. Муминов И.М. Из истории развития общественно-политической мысли в Узбекистане, конца XIX- начало XX вв.Ташкент, 1957, 214с; Богоутдинов, А. М. Очерки по истории таджикской философии. — Душанбе: Таджикгосиздат, 1961. — 332 с.
3. Философские взгляды Мирзы Абдулкадыра Бедиля. Самарканд: УзГУ, 1946. – С.113.
4. Богоутдинов А.М. Очерки по истории таджикской философии.-Сталинабад, 1961 .- 331 с..
5. Мўминов, Т. Научный подвиг Иброхима Муминова // Общество и инновации. 1, 1/с (ноя. 2020), 429–442.
6. Мўминов И.М. Ўзбекистондаги табиий-илмий ва ижтимоий -фалсафий тафаккур тарихидан лавҳалар (XIX асрдан ва XX асрнинг бошларигача). -Т.: Фан,1999. –Б.183-184.
7. Богоутдинов А.М. Из истории общественно-политической мысли таджикского народа // Вопр. философии. - 1961.- № 3. – С. 126-132;
8. Тўраев Б. Маънавияти юксак файласуф эди // https://uza.uz/uz/posts/manaviyati-yuksak-faylasuf-edi_252475
9. Alikulov X., Haqqulov N. Q. Spiritual maturity and philosophical thinking dependence of development //ISJ Theoretical & Applied Science. – 2020. – Т. 4. – №. 84. – С. 164-167.
10. Qahramonovich H. N. Worthy descendants of the Samarkandians: enlighteners Jadids //World Bulletin of Social Sciences. – 2022. – Т. 13. – С. 37-40.
11. Хаккулов Н. К. Самарканд земля просветителей джадидов //Conferencea. – 2022. – С. 48-52.
12. Ҳаққулов Н. Қ. Сиддикий-Ажзийнинг ижтимоий-фалсафий қарашлари. – 2020.
13. Ризаев И. И., Хаккулов Н. К. ВЛИЯНИЕ ЦИФРОВОЙ КУЛЬТУРЫ НА НЕПРИКОСНОВЕННОСТЬ ЖИЗНИ ЧЕЛОВЕКА В ОБЩЕСТВЕ //Оргкомитет. – 2023. – С. 342.
14. Ҳаққулов Н. Қ. Сиддикий-Ажзий маърифатпарварлик қарашларида миллий толерантлик масаласи //НамДУ илмий ахборотномаси-Научный вестник НамГУ. – 2020. – №. 10. – С. 296.



15. Азизкулов А. Циклы в научном творчестве //Материалы Первой Международной конференции “Циклы”. Часть первая. Ставрополь: Сев-КавГТУ. – 1999. – С. 106.
16. АЗИЗИҚУЛОВ А. А. Илмий ижодиётида рационаллик ва норационаллик: концептуал тахлилий ёндашувлар: Дис //Фал. фан. – 2007. – №. 2007.
17. Ruzimurodov S. M. Ethnomadonian, Ethnoesthetic Aspects Of The Formation Of A Healthy Lifestyle In Society //The American Journal of Social Science and Education Innovations. – 2021. – Т. 3. – №. 05. – С. 188-194.
18. Рўзимуродов С., Юсупов М. ЎЗБЕКИСТОНДА ФАЛСАФИЙ ФИКРЛАР ИБТИДОСИ ХУСУСИДА //Проблеми та перспективи розвитку науки на початку третього тисячоліття у країнах СНД. – С. 253.
19. Хаққулов Н. Қ. Perfect generation-personality of private education and humanity facilities //Мировая наука. – 2019. – №. 2 (23). – С. 62-63.
20. Ҳаққулов Н. Қ. Сиддиқий-Ажзийнинг ижтимоий-фалсафий қарашлари. – 2020.

